

LINGVISTIKADA TRANSFORMATSIYA TUSHUNCHASI  
TRANSFORMATSIYALARNING TARJIMADA QO'LLANILISH TURLARI

**Azimova Sayyora Khusanboyevna**

*Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi macmillan1926@mail.ru*

**Obidova Sa'dia Zuxriddin qizi**

*FarDU 1-bosqich magistrantisadiaobidova4644@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola transformatsiya atamasini lingvistik termin sifatida ko'rib chiqadi va izohlashga harakat qiladi. Shu bilan bir qatorda, maqolada transformatsiyadan tarjimashunoslikda foydalaniladigan bir qancha usullarga ham baho beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *transformatsiya, qurilma, sintaktik shakl, Leonard Blumfild, strukturalar, asliyat matni, manba tili, tarjima tili.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается и делается попытка объяснить термин «трансформация» как лингвистический термин. Кроме того, в статье дана оценка нескольким методам, используемым в переводоведении от трансформации.*

**Ключевые слова:** *трансформация, прием, синтаксическая форма, Леонард Блумфилд, структуры, исходный текст, исходный язык, язык перевода.*

**Abstract:** *This article considers and tries to explain the term transformation as a linguistic term. In addition, the article evaluates several methods used in translation studies from transformation.*

**Key words:** *transformation, device, syntactic form, Leonard Bloomfield, structures, original text, source language, translation language.*

## KIRISH

Tilshunoslikda transformatsiya deganda tilga xos bo'lgan tub, markaziy qurilmani til qonun- qoidalari asosida o'zgartirib, boshqa bir qurilma hosil qilish tushuniladi. Transformatsiya atamasi dastavval amerikalik olimlar tomonidan XX asrning 50-yillarida o'rganila boshlangan, ammo bu tushunchaning keng qo'llanilishiga deskriptiv tilshunoslikning asoschisi Leonard Blumfildning "Til" nomli asarida keltirilgan strukturalizmning shakllanishiga asos bo'lgan fikrlar asos bo'lgan. Strukturalistlar transformatsiya atamasini sintaktik strukturaga nisbatan qo'llaganlar va hozir ham ushbu atama gapning sintaktik strukturasi tahlilida keng qo'llaniladi. "Lingvistik ensiklopedik lug'at" transformatsion metod atamasiga shunday ta'rif beriladi: "Transformatsion metod bu nisbatan kichik strukturalardan katta strukturalarni hosil qilishga asoslangan gapning sintaktik shaklini vujudga keltiruvchi metod sanaladi." Bunda muayyan sintaktik tushuncha asosida yana bir ikkilamchi qurilma hosil qilinadi va u hosila deb ataladi. Lekin, hosila o'zida asosning ma'nosini

saqlagan bo'lishi lozim. Tilshunoslikka oid bo'lgan adabiyotlarda applikativ model o'zining yuqori bosqichida transformatsiya bilan bog'lanishi borasida ma'lumotlar bo'lsa-da, mazkur modellarning qanday transformatsiyaga munosabat bildirishi konkret til materialida vositasida ko'rsatib berilmagan. Bunday holatda ko'proq genotipik abstract til materialida dalillar keltirilganligini ko'rishimiz mumkin. S.K. Shaumyan va P.A. Sobolevalarning " " asarida bu xususda quyidagilar til materialining tahlili uchun asos qilib olingan: Qizaloq raqsga tushdi Ushbu gapning transformalari: 1) Raqsga tushgan qizaloq edi. 2) Raqqosa qizaloq; 3) Raqsga tushadigan qizaloq. Gap strukturasi berilgan namunada turlicha bo'lib, uning ma'nosi bilan mushtarak ma'nolar transformalarda shakllanayotgani va har bir transformada muayyan transformasi shakllanayotganligi va har bir transformada muayyan turkumga oid bo'lgan so'zlar applikativ bog'anishda ekanligi ta'kidlanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Hech birimizga sir emaski, tarjimonlik ko'p mehnat va malaka talab qiladigan sohalardan biridir. Tarjimon olimlardan biri bo'lgan I. Zinger bu xususda shunday degan edi: "Tarjimon sinchkov o'quvchi, ajoyib uslubchi, so'z ustasi, psixolog, har tomonlama bilimdon bo'lishi kerak". [17,164b]

Biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, bu ishga bel bog'lagan tarjimon uchun oldindan tayyorlangan va amal qilishi lozim bo'lgan qat'iy bir yo'riqnoma ham mavjud emas. Tarjimonning sifat darajasi tarjimon qanchalik o'ziga berilgan asarning asl ma'nosini yo'qotmay saqlagan holda o'quvchiga yetkaza bera olish qobiliyatida ko'rinadi. Aslida tarjima bu tillararo transformatsiyalar majmuidir.

Shuning uchun ham tarjimon tarjima jarayonida turli xil transformatsiyalardan ya'ni o'zgartirishlardan foydalanadi.

Ulardan eng keng qo'llanadiganlari quyidagilar:

1. So'z tarkibini o'zgartirish orqali;
2. Turli leksik almashinishlar;
  - a) turli sinonimlar qo'llash orqali;
  - b) antonim so'zlar qo'llash orqali;
  - c) bir so'z turkumi doirasidagi so'zni boshqa bir so'z turkumiga o'tkazish orqali;
  - d) qisqartmali so'zlarni to'liq tarjimasi bilan berish yoki aksincha, chunki unday qisqartma tarjima tilida yo'q (masalan, UK YUK deb bo'lmaydi yoki BK deb bo'lmaydi shuning uchun Birlashgan qirollik deb tarjima qilinadi);
3. Sintaktik o'zgartirishlar (transformatsiyalar):
  - A) qo'shma gapni sodda gap bilan tarjima qilish;
  - B) sodda gapni qo'shma gapga almashtirish;
  - C) bosh gapni ergash gap bilan almashtirish;
  - D) ergash gapni bosh gap bilan almashtirish;
  - E) teng bog'langan qo'shma gapni ergash gapli qo'shma gap bilan tarjima qilish;
  - F) ergash gapli qo'shma gapni teng bog'langan qo'shma gap orqali tarjima qilish;

4. Analogik tarjimada sintaktik o'zgartirishlar (transformatsiyalar)

a) sodda gapni soddagap orqali;

b) qo'shma gapni qo'shma gap orqali;

5. Antonomik tarjimada sintaktik o'zgartirishlar:

a) manba tilidagi kesimni tarjima tilida antinimik shaklda berish (ya'ni bo'lishli shakldagi fe'lni bo'lishsiz fe'l shaklida tarjima qilish)

b) sinonimik tarjimada sintaktik o'zgartirishlar

6. sintaktik tarjimada sinonimik o'zgarishlar:

a) manba tilidagi vositani birdan ortiq sinonimik vositalar orqali tarjima qilish;

7. Kompensatsiya (o'rnini qoplash);

8. Qo'shishlar;

9. Tushirib qoldirishlar (kerakli vakeraksiz tushirib qoldirishlar);

10. "Xijjalab" tarjima qilish ("Qizil" burchak-redcorner)

Yuqoridagi o'zgartirishlar (transformatsiyalar) ni quyida batafsil ko'rib o'tamiz. Bu transformatsiya turi bir tildag i qonuniyatlarga binoan qurilgan gaplarni boshqa bir tilga o'girish paytida manba tilidagi so'z tartibining o'zgarishida yaqqol seziladi.

Masalan: I have watched your videos.

1 2 3 4

Bu gapni o'zbek tiliga tarjima qilganimizda gapning mavjud tartibi o'zgarib, o'zbek tili so'z tartibiga moslashadi.

Ya'ni,

Men sizning videolaringizni ko'rib bo'ldim.

1 3 4 2

Shunday qilib manba tilde so'z tartibi SVO (Subject+Verb+Object) bo'lsa, tarjima tilida so'z tartibi SOV (Subject+Object+Verb) ekanligini ko'rib turibmiz.

Agar manba tili va tarjima tili bir tipologik guruhga qarashli (qarindosh) til bo'lsa, unda so'z tarkibi o'zgarmaydi.

Misol uchun:

I have watched your videos.

1 2 3 4

Demak, bu transformatsiya qarindosh yoki tipologik guruhga qarashli (qarindosh) til bo'lsa, unda so'z tartibida o'zgarish bo'lmaydi.

2. Turli xildagi leksik o'zgarishlar:

a) sinonim so'zlar bilan almashtirish;

My parents are German. Mening ajdodlarim nemis millatiga mansub.

b) antonim so'zlar bilan almashtirish:

He has no worries. U xotirjam.

He is ugly. U chiroyli (kelishgan) emas.

c) boshqa so'z turkumi bilan almashtirish:

She loves chocolate. U shokolad yeyishni yoqtiradi.

(Noun )(verb)

He has a rewarding job. U yaxshi ishda ishlaydi.

b) Sodda gapni qo'shma gap orqali berish:

I went out in order to buy bread. (simple ext, sentence)

Non olib kelaman deb chiqdim. (subordinate clause purpose)

c) Bosh gapni ergash gap bilan almashtirish yoki aksincha ergash gapni bosh gapga almashtirish:

While I was preparing dinner my father called.

My father called when I was preparing dinner.

Kechki ovqat tayyorlayotganimda dadam qo'ng'iroq qildi.

Dadam qo'ng'iroq qilganda kechki taom tayyorlayotgandim.

d) teng bog'langan qo'shma gapni ergash gapli qo'shma gapga almashtirish.

She was watching TV and her mother was cooking.

Onasi ovqat tayyorlayotgan paytda u televizor ko'rayotganedi.

4. Sodda gapni soda gap orqali o'zgartirish:

My brother is fond of football.

Mening akam futbol ishqibozi.

5. Qo'shma gapni qo'shma gap bilan almashtirish:

I have married and moved to another city.

Turmushga chiqdim va boshqa shaharga ko'chib o'tdim.

6. Antonimik tarjima:

He is fool. U dono emas.

They are poor. Ular boy emas.

7. Sinonimik tarjima:

He has gone out to buy books.

U kitob olgani (sotib olish uchun, xarid qilish uchun kabi) chiqdi.

8. Kompensatsiya (o'rnini qoplash):

He was very happy - uning og'zi qulog'ida edi.

9. Qo'shishlar (o'rinli qo'shishlar):

Look, this place is very dangerous - Hoy, menga qarang bu yer juda xavfli.

10. Tushirib qoldirishlar:

He lost his money.

U pulini yo'qotib qo'ydi.

11. Kalka (o'zini ko'chirib olib o'tish):

There was held the briefing of the visit of the president to the USA - prezidentning Yevropaga qilgan safari haqida briefing (tafsilotlar) berildi.

Antifreeze - antifriz

Spedo-meter - spidometr

Machine - mashina

Computer - kompyuter

Camera-camera

Zebra-zebra

Kangaroo-kengru

Conference-koferensiya

12.Izohli tarjima:

Ush bu tarjima turidan manba tildagi vositani anglatuvchi so'z tarjima turida bo'lmagan yoki ekvivalent qo'llansa asl ma'noni to'liq yetkazib bera olinishiga shubha bo'lgan holatda ishlatiladi. Bunday misollar tilimizda juda ko'p uchraydi:

Baraka-barakah

Iymon-iymaan

Do'ppi-duppi

MUHOKAMA

Quyida O'.Genrining qalamiga mansub "The last leaf" asari va uni o'zbek tiliga tarjima qilishda foydalanilgan bir nechta transformatsiyalarni ko'rib chiqamiz. ( Ingliz tilidan Ma'ruf Abdullayev tarjimasi ) Misol:

1)"She has a very little chance to survive. Let us say , it is nearly impossible," he said as he was playing with his clinical thermometer.

- Uning tuzalib ketishini men, aytaylik, o'ndan bir ehtimol degan bo'lardim,--dedi u termometridagi simobni silkitarkan. Bu yerda "a very little chance"( juda kichik imkoniyat) jumlasini "o'ndan bir" iborasi orqali ifodalangan. Tarjimonda playing ya'ni " o'ynamoq" so'zini ham "silkitmoq" so'zi bilan almashtirgan chunki bu o'rinda silkitmoq so'zi kontekstga munosibroq bo'lgan va tabbiyroq ko'ringan.

2) But if she wants to survive and has joy in her life , she may overcome this terrible disease. Nevertheless, our little lady has made up her mind that she is not going to get well. She thinks that she is going to die of this illness.

Shunda ham bu imkoniyat uning yashashga bo'lgan intilishi bilan bog'liq . Agar bemor go'rkovga ishi tushishini shunchalik xohlayotgan bo'lsa , dorishunoslik kitoblarimizdagi ko'rsatmalardan hech qanday foyda yo'q. Ushbu parchada ko'plar transformatsiyalarni uchratishimiz mumkin. Avvalo , manba tilidagi shart ergash gapli qo'shma gap ( But if she wants to survive and has joy in her life , she may overcome this terrible disease ) tarjima tilida sodda gap (Shunda ham bu imkoniyat uning yashashga bo'lgan intilishiga bog'liq) ga aylangan. Keyingi gapda esa shakl butunlay o'zgarib ketgan . Tarjimonda bemorning tuzalib ketmasligi va ushbu kasallikdan o'lishiga ishonib bo'lgan degan jumlaning bemorning go'rkovga ishi tushishiga qiyoslagan va bu asarning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Bu yerda ham manba tilidagi bitta qo'shma gap va sodda gap tarjima tilida ergash gapli qo'shma gapga aylangan.

3) Berman was a failure in art.

Barmanning san'atda omadi chopmadi. Ushbu tarjimada manba tilidagi so'z turkumlari va gap bo'laklari tarjima tilida o'zgarishga uchragan . Ya'ni: ot fe'lga

(failure –omadi chopmadi), ega qaratqichli aniqlovchiga ( Berman- Bermanning) almashgan.

#### NATIJALAR

Turli tillardagi matnlarni taqqoslab , shu natijaga erishdikki,asliyat matnida berilgan ifoda vositalari ba'zi holatlarda ma'noni saqlash , kuchaytirish va asar ta'sirchanligini oshirish uchun o'gartirilishi mumkin Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdigi gaplarda nafaqat grammatik, leksik almashtirishlar, o'zgartiish va qo'shishlardan foydalaniladi , balki obyektini umaman boshqa nuqtayi nazardan nomlagan modifikatsiyalardan ham foydalaniladi( yashashdan umidini uzishni go'rkovga ishi tushishini istash ga almashtirish kabi).

Tahlilda ko'rilgan misollar tarjima jarayonida qo'shma gaplarning sodda gapga yoki ikkita gapning bitta qo'shma gapga aynalishi mumkinligini ko'satmoqda.

#### XULOSA

Keltirib o'tilgan misollar transformatsiyalar murakkab xarakterga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Ularni faqat Grammatik , leksik yoki mantiqiy o'zgarishlar deb talqin etish maqsadga muvofiq emas . Misollardan ko'rinib turibdiki, transformatsiyalar bir vaqtning o'zida leksik, grammatik va mantiqiy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi hamda jumlaning lingvistik shaklining barcha jihatlariga ta'sir qiladi .

Tahlillardan kelib chiqib , tarjimada transformatsiyalarning tabiati murakkab va kompleks xarakterga ega ekanligini aytishimiz mumkin. Tarjima jarayonida amalga oshiriladigan transformatsiyalarning murakkab tabiati leksik-semantik, Grammatik, mazmuniy, mantiqiy ,diskursiv-ekspressiv kabi xususiyatlarga asoslanadi. Asliyat matnining mazmunini tarjimada to'laqonli tarzda talqin qilishning usullarni qanchalik ko'p bo'lsa , tarjima transformatsiyalarining ahamiyati ham shunchalik ortib boradi . Asliyat matnida lisoniy xususiyatlarning ko'pligi , tarjimada transformatsiyalardan foydalanish zaruriyatini oshiradi.Jumlada lisoniy birliklar qanchalik chuqur ma'noga ega bo'lsa, transformatsiyaga mos belgilarning soni ham ko'payib boradi. Ko'p sonli talqinlar mavjud bo'lgan holatda birgina transformatsiyaning o'zi turli usullarda talqin qilinishi mumkin. Talqinlarning ko'pligi esa tarjimaning variantli shakliga to'g'ri keladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Salomonov G'. "Tarjima nazariyasiga kirish"—Toshkent ,1978-280b,
- 2.Salomonov G'. "Tarjimon mahorati",T,1980;
- 3.N.Turniyozov.Xorijiy mamlakatlar Lingvistik nazariyalari.Samarqand – 2007, 59-bet ;
- 4.Tatyana Bushuy, Shahriyor Safarov .Til qurilishi : Tahlil metodlari va metodologiyasi."Fan" nashriyoti . T. 2007y.
- 5.Xalliday M.A.K. "Patterns of languages" London. 1966.29-30-bet

6.Turaboyeva P.A Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimalarda pragmatikaning lingvistik ahamiyati “ o'zbek tili va adabiyoti” Toshkent 1979 N 64-65 bet

7. Usmonova D., Obidova S., Xomidjonova M. “Transformatsiya atamasi lingvistik tushuncha sifatida tarjimada transformatsiyalardan foydalanish turlari” International Multidiscipllinary Research in Academic Science jurnali. 2024y aprel, Volume 7.

8.O.Henry, The last leaf and other stories.

9.M.Abdullayev tarjimasi So'nggi yaproq” “ Sharq yulduzi” jurnali .2011y, 4-son;

10.M.Aslanova “Leksik transformatsiyalarning pragmatic xususiyatlari” bitiruv malakaviy ishi.Samarqand-2020.